

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

“BIOTEXNOLOGIYA” KAFEDRASI

Bifidumbakterin preparatini ishlab chiqarish texnologiyasi

mavzusidagi bitiruv malakaviy ishining

TUSHUNTIRISH XATI

30-11guruh talabasi _____ YAkubova Nilufar

BMI rahbari _____ Dots. Maksumova Dilrabo

BMI “Biotexnologiya” kafedrasida
ko‘rib chiqildi va himoyaga ruxsat
etildi. _____ Kafedra mudiri, dotsent
Xo‘jamshukurov N.A.

Bayonnoma № _____ 2015 yil

Toshkent – 2015

					Bifidobakteriyalar ishlab chiqarish texnologiyasi	<i>varaq</i>
<i>O‘zga</i>	<i>bet</i>	<i>xujjat №</i>	<i>imzo</i>	<i>sana</i>		

Mundarija		
	Kirish	
	I.NAZARIY QISM	
1	Ishlab chiqarishning fizik-kimyoviy nazariy asoslari	
2	Asosiy ishlab chiqarish texnologiyasi va uning izoxi	
3	Asosiy uskunaning ishlash prinsipi va uning texnik tavsiflari	
4	Xom ashyolar tavsifi	
	II. HISOBLASH QISMI	
1	Yordamchi materiallar, chiqindilar va ulardan foydalanish	
2	Uskunalar xisobi (asosiy, qo‘shimcha va yordamchi uskunalar xisobi)	
3	Maxsulotlar xisobi	
4	Uskunaning issiqlik xisobi (gidravlik va mexanik hisoblar)	
5	Ishlab chiqarishning texnologik va fizik-kimyoviy nazorat	
	III. AVTOMATLASHTIRISH, MEHNAT MUXOFAZASI IQTISODIY QISM	
1	Asosiy uskunani avtomatlashtirish	
2	Mexnat muhofazasi	
3	Fuqaro himoyasi	
4	Atrof-muhit muhofazasi	
5	Iqtisodiy qism	
6	Xulosa	
7	Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati	
8	Ilovalar (umumiy texnologik jarayon va asosiy uskuna chizmalari – A1 formatda)	

					Bifidobakteriyalar ishlab chiqarish texnologiyasi	<i>varaq</i>
<i>O'zga</i>	<i>bet</i>	<i>xujjat №</i>	<i>imzo</i>	<i>sana</i>		

KIRISH

Xozirgi kunda dunyo olimlari probiotiklarning ta'sir mexanizmini o'rganish ustida ilmiy tekshirish ishlari olib borishmoqda. Aniqlanishicha probiotiklar tarkibiga kiruvchi mikroorganizmlar organizmga tizim darajasida ta'sir etib, organizmning nospetsifik rezistentligini faollashtirishi natijasida jo'ja va parrandalarning yuqumli kasalliklarga bo'lgan chidamliligini oshiradi.

Probiotiklar sifatida sut kislotali bakteriyalar, bifidobakteriyalar va achitqilardan foydalanish mumkin. Bizga ma'lumki bifidobakteriyalarning insonlar va xayvonlar organizmiga ahamiyati nihotda katta. Ular organizmga tushganidan so'ng turli vitaminlar sintez qiladi, organizmning immunitetini oshiradi. Ishtaxani ochadi, ovqat xazm bo'lishini yaxshilaydi.

Probiotiklar sifatida sut kislotali bakteriyalar, bifidobakteriyalar va achitqilardan foydalanish mumkin. Bizga ma'lumki bifidobakteriyalarning insonlar va xayvonlar organizmiga ahamiyati nihotda katta. Ular organizmga tushganidan so'ng turli vitaminlar sintez qiladi, organizmning immunitetini oshiradi.. Ishtaxani ochadi, ovqat xazm bo'lishini yaxshilaydi.

Sog'lom inson va xayvonlar mikroflorasi tug'ilgandan to qariguniga qadar bifidobakteriyalarga boy bo'lishi kerak. Aynan bifidobakteriyalar organizmda V, S, K gurux vitaminlari sintezida ishtirok etadi, organik azotli birikmalardan ba'zi almashinmaydigan aminokislolarni xosil qiladi. Bu bakteriyalar qandlarni fermentlash oqali ichakda qonga kalsiy, temir, noorganik fosfat, D vitaminini qonga so'rilishi uchun zarur bo'lgan zarur bo'lgan kislotali muxit yaratadi.

Bifidobakteriyalar organik kislotlar va antibiotiklar xosil qilish orqali patogen mikroorganizmlr o'sishini chegaralaydi. Bifidobakteriyalarning organizmdagi ximoya roli ular tomonidan organizmdagi azotli almashinishda xosil bo'lgan kanserogen ta'sirga ega bo'lgan zaxarli maxsulotlarini dezaktivatsiyalash, shishga va viruslarning ta'siriga organizmning chidamliligini oshirishi bilan bog'liq.

					Bifidobakteriyalar ishlab chiqarish texnologiyasi	<i>varaq</i>
<i>O'zga</i>	<i>bet</i>	<i>xujjat №</i>	<i>imzo</i>	<i>sana</i>		

Lekin, afsuski, bifidobakteriyalarning miqdori va faolligi turli ekstremal xolatlarda normadan pasayib ketadi.

Bifidobakteriyalardan sut mahsulotlari tayyorlash uchun foydalaniladi. Bu mahsulotlar parxezbop va davolash xususiyatlarga ega bo'lib B guruh vitaminlari, K vitamini, almashinmaydigan aminokislotalar sintezlaydi.

Bifidobakteriyalar sutda, gidrolizlangan sutda, sut zardobida kulturalanadi. Ular glyukozani galaktozu, fruktozu, laktozu va boshqalarga bijg'itadi. Glyukoza bijg'iganda sirka kislota, sut kislota, va ozroq miqdorda chumoli va qaxrobo kislotalar hosil bo'ladi. Yashash joyi : Bifidobakteriyalar ichak mikroflorasidir. Organizmda bir qator foydali funksiyalarni bajaradi: Ichakning shilliq qavatiga va uning adsorbsion xususiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi; V, K gurux vitaminlari, askorbin kislotalarni faol sintezlaydi; Azotning noorganik birikmalaridan ba'zi aminokislotalarni sintezlaydi (masalan. alanin, valin, asparagin); Ichakda kislotali muxit reaksiyasini yaratadi; Patogen mikroorganizmlarga qarshi antogonistik faollikka ega; Kalsiy tuzlari, D vitamini va temirning yashiroq o'zlashtirilishiga yordam beradi. Bifidobakteriyalar hozirgi kunda bolalar davolash-profilaktika uchun mo'ljallangan sut qatiq mahsulotlari ishlab chiqarishda va qishloq xo'jalik xayvonlari uchun probiotik sifatida foydalaniladi.

					Bifidobakteriyalar ishlab chiqarish texnologiyasi	<i>varaq</i>
<i>O'zga</i>	<i>bet</i>	<i>xujjat №</i>	<i>imzo</i>	<i>sana</i>		

ISHLAB CHIQRISHNING FIZIK-KIMYOVIY NAZARIY ASOSLARI

Mikroorganizmlarni o‘stirishda qattiq va quruq oziqa muhitlarining namligi juda katta ahamiyatga ega. Agarda muhitning namligi 11-20% atrofida bo‘lsa, mikroorganizmlar umuman o‘smaydi. Birmuncha ko‘proq o‘shni namlik 30% bo‘lganda kuzatish mumkin. Namlikning 40-45% bo‘lishi mikroorganizm kulturasining mo‘‘tadil o‘shiga va spora hosil qilishiga juda qulay sharoit hisoblanadi. Bu holat spora hosil qiluvchi ferment produtsentlarining ekish materiallarini olishda ishlatiladi. Muhitning namligi 53-58% bo‘lganda hosil qilingan biologik faol moddalarning to‘planishi kuzatiladi. Namlik 60-68% bo‘lganda biologik faol moddalarning biosintezi pasaya boshlaydi va bu holat oziqa muhiti ichiga kiradigan havoning yomon o‘tishi bilan tushuntiriladi.

Kulturalarni qattiq oziqa muhitida o‘stirish natijasida uning tarkibida quruq moddalarning miqdori kamayib, CO₂ va suvga aylanadi. Shu sababli, agarda mikroorganizmni o‘stirish yopiq idishlarda (kolba, maxsus kyuvetalar va h.k.) olib borilsa, bug‘lanish natijasida namlikning ortishi kuzatiladi. Agarda o‘stirish jarayoni ochiq idishlarda olib borilsa, kulturani va oziqa muhitining qurib qolishi va hosil bo‘lgan mahsulot faolligi kamayishi kuzatiladi. Namlikning darajasi va mo‘‘tadilligi har bir o‘stirilayotgan produtsentning fiziologik xususiyatlariga, oziqa muhit tarkibi va boshqa omillarga bog‘liq bo‘lib, har bir omil tadqiqot yo‘li bilan aniqlanadi.

1 tonna, kultura bir soat davomida faol o‘sh bosqichida 7,6 m³ ga yaqin kislorodni o‘zlashtiradi yoki havoga bo‘lgan nisbatda esa 36,5 m³ ni o‘zlashtiradi.

Uchinchi bosqich (idiofaza) kulturani morfologik va biokimyoviy ixtisoslashishi kuzatiladi, ya’ni bunda mikroorganizmlar konidialarni va ikkilamchi metabolitlarni hosil qiladilar. Ushbu bosqichda mikroorganizmlar hujayra tashqarisiga chiqariluvchi biologik faol moddalarni hosil qiladilar. Bunda

					Bifidobakteriyalar ishlab chiqarish texnologiyasi	<i>varaq</i>
<i>O‘zga</i>	<i>bet</i>	<i>xujjat №</i>	<i>imzo</i>	<i>sana</i>		

o'stirish xonalarida haroratni 3-4⁰C ga tushirish va havo almashtirishni 3-5 martaga kamaytirish zarur.

Mikroorganizmlarni suyuq oziqa muhitlarida o'stirish davomida ham havo bilan ta'minlashga va is gazi bilan ifloslangan havoni fermentyordan chiqib ketish rejimiga e'tibor berish kerak. O'stirish davomiyligi ham muhim ko'rsatkichlardan biri bo'lib, u maksimum ferment ishlab chiqarish samaradorligini belgilaydi. U juda ko'p omillarga bog'liq: oziqa muhiti tarkibi va uni produtsentga uzatish usuli, muhitni havo bilan ta'minlanganlik darajasi, produtsent turi, ferment xususiyati va boshqalardir. o'stirish davomiyligi ko'pincha produtsentning fiziologik xususiyatlariga bog'liq bo'ladi.

pH ko'rsatkichining ta'siri. Mikroorganizmlarni qattiq oziqa muhiti sirtida o'stirishda muhitning pH ko'rsatkichi uning namligi kam va kuchli buferli bo'lganligi sababli biologik faol moddalarning hosil bo'lish jarayonlariga kam ta'sir qiladi. Lekin pH ko'rsatkichi suyuq oziqa muhitida asosiy hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, oziqani sterilizatsiya qilishda va kulturani o'stirish davomida tez o'zgaradi. Qattiq oziqa muhitlari sirtida produtsentlarni o'stirish jarayonida ular suv bilan namlanadi va namlangan muhitning pH ko'rsatkichi 5,0-5,6 tashkil qiladi. Ko'pincha oziqa muhiti sifatida ishlatilgan o'simlik bo'lakchalari xlorid, sulfat yoki sut kislotalarining kuhsiz eritmasi bilan namlanadi va ularning pH ko'rsatkichi 4,5-5,0 atrofida bo'ladi. Kislotalarni qo'shish natijasida oziqa muhiti bakteriyalarning o'sishi uchun selektiv sharoitga aylanadi. Bunda havo va oziqani sterilizatsiya qilish xarajatlari bir muncha kamayadi.

Suyuq oziqa muhitlari pH ko'rsatkichi mikroorganizmlarni o'stirishda juda katta ahamiyatga egadir. Eng ko'p e'tiborni albatta, oziqaning boshlang'ich va sterilizatsiya hamda mikroorganizm o'sishi paytida kation va anionlarni iste'mol qilishi natijasida o'zgaradigan pH ko'rsatkichiga berish kerak. Shunday iste'mol natijasida kultural suyuqlik yo kislotali yoki ishqorli muhitga o'tib ketadi.

					Bifidobakteriyalar ishlab chiqarish texnologiyasi	<i>varaq</i>
<i>O'zga</i>	<i>bet</i>	<i>xujjat №</i>	<i>imzo</i>	<i>sana</i>		

Muhitning mo‘‘tadil pH ko‘rsatkichi produtsentning xususiyatiga bog‘liq shunga qaramay ba’zi umumiy qonuniyatlarni ko‘rish mumkin.

Haroratning ta’siri.Ko‘pgina biologik faol moddalarning produtsentlari, xususan bakteriyalar, mezofil mikroorganizmlar hisoblanadi va ularning rivojlanishi uchun mo‘‘tadil harorat 22-32⁰C atrofida bo‘ladi.

Sanoatda termofil mikroorganizmlardan foydalanishning bir qancha ijobiy tomonlari bor. chunki ularni yuqori haroratda o‘stirilganda jarayonning sterilligiga bo‘lgan talabni o‘z-o‘zidan kamaytiradi. Bundan tashqari termofil mikroorganizmlar yuqori haroratga bardoshli bo‘lgan biologik faol moddalarni hosil qiladi. harorat hosil bo‘layotgan ferment miqdorining o‘zgarishida katta ahamiyatga egaligi bilan ham ajralib turuvchi omildir.

Mikro- va makroelementlar ta’siri.Mikroorganizmlarni o‘stirish uchun oziqa muhitlarini tayyorlashda ferment sanoati yoki qishloq xo‘jaligi o‘simliklari qoldiqlaridan keng ko‘lamda foydalaniladi. qattiq oziqa muhitlari asosan qishloq xo‘jaligi o‘simliklarining qoldiqlarini maydalab, namligini ma’lum darajaga keltirib va unga boshqa makro va mikroelementlarning eritmalarini aralashtirib tayyorlanadi.

Suyuq oziqa muhitlari tayyorlashda esa kam eruvchan komponentlardan miqdori cheklangan holda foydalanish mumkin. Aks holda uning erimagan qoldiqlari oziqa muhiti va kultural suyuqlikni qayta ishlashda xalaqit beradi. Oziqa muhiti tarkibiga har xil o‘simlik va ferment sanoati qaynatmalari va gidrolizatlari dag‘al filtratlarini hamda spirt bardasi, mikroblar biomassasi plazmolizatlari, aminokislotalar va boshqalarni qo‘shib tayyorlash mumkin. Bularda yirik qoldiqlarning bo‘lmasligi to‘xtovsiz o‘stirish jarayonida juda katta ahamiyatga ega. Suyuq oziqa muhitlari tarkibida, odatda 2,5% dan 20% gacha quruq moddalar eritma holida bo‘ladi. Muhitning pH ko‘rsatkichi uni tayyorlash vaqtida va sterilizatsiyasidan keyin nazorat qilinadi.

					Bifidobakteriyalar ishlab chiqarish texnologiyasi	<i>varaq</i>
<i>O‘zga</i>	<i>bet</i>	<i>xujjat №</i>	<i>imzo</i>	<i>sana</i>		

Uglerod manbalari. Hidrolitik biologik faol moddalar asosan induksiyalab tabiatga ega bo'lganligi uchun oziqa muhiti tarkibiga kerakli bo'lgan fermentni faol to'plash maqsadida uning induktorini qo'shish kerak.

Uglerod manbasi mikroorganizmlar uchun eng kerakli bo'lgan komponentdir, chunki barcha organizmlarda eng asosiy metabolik jarayonlar aynan shu element ishtirokida amalga oshiriladi. Uglerod manbasi vazifasini har xil organik birikmalar bajarishi mumkin va ular hujayra moddalarini boshlang'ich materiallari hamda energiya manbasi sifatida ishlatiladi.

Mikroorganizmlardan gidrolitik biologik faol moddalarni olishda uglerod manbasiga alohida e'tibor berish kerak, chunki ular shu kompleks biologik faol moddalarning stimulyatorlari bo'lib hisoblanadi. Agarda uglerod manbasi (kraxmal, pektin va h.k.) oziqa muhitiga ko'p miqdorda qo'shilsa, ular harakatsiz bo'lib qoladilar va shuning uchun mikroorganizm talabiga qarab ularni qism-qism qilib qo'shish kerak.

Uglerod manbasini tanlash albatta, mikroorganizmning fiziologik xususiyatlariga va u hosil qiladigan fermentning turiga bog'liqdir hamda har bir mikroorganizm uchun tadqiqotlar yo'li bilan aniqlanadi.

Azot manbalari. Muhitda azot manbasi vazifasini mineral tuzlar yoki azotning organik birikmalari bajarishi mumkin. Masalan, proteinazalar hosil bo'lishida azot manbalari nafaqat oziqa muhitining muhim komponent sifatida, balki, biosintez jarayonini faollashtiruvchi vazifasini ham bajaradi. Eng yaxshi natijalar muhitga oqsillar va ularning parchalanish mahsulotlarini qo'shish yo'li bilan olinadi.

Azotning organik manbalariga hayvonlarning har xil oqsillari (pepton, kazein, gemoglobin, jelatin, tuxum oqsili), o'simlik xom ashyolari oqsillari (yog'sizlantirilgan soya, makkajo'xori ekstrakti), mikroorganizmlarning biomassasi hamda oqsillarning kislotali, ishqorli va fermentativ gidrolizatlari, aminokislotalar va boshqa birikmalar kiradi.

					Bifidobakteriyalar ishlab chiqarish texnologiyasi	<i>varaq</i>
<i>O'zga</i>	<i>bet</i>	<i>xujjat №</i>	<i>imzo</i>	<i>sana</i>		

Azotning noorganik manbalari sifatida asosan har xil azot kislotasi va ammoniyning tuzlaridan foydalaniladi. Noorganik azot manbalarini tanlashda kation va anionlarning fiziologik ta'siriga e'tibor berish kerak. Muhit rN ko'rsatkichini ishqoriy yoki kislotali tomonga o'zgarishi produtsentning biosintetik xususiyatiga qattiq ta'sir qiladi.

Ko'p tadqiqotchilarning ma'lumotlariga qaraganda, azotning organik manbalaridan foydalanish noorganiklarga nisbatan ko'proq ijobiy hisoblanadi. Lekin ularni birgalikda ma'lum o'rganilgan miqdorda ishlatilsa, ularning ta'siri ko'p hollarda ijobiy tomonga buriladi.

Fosfor manbalari. Fosfor elementi oziqa muhitiga fosfor kislotasi tuzi yoki organik birikma - fitin shaklida qo'shiladi. Fosfor muhit uchun eng zarur bo'lgan elementdir, chunki u hujayrada energiya almashinuvi jarayonida ATF, ADF va AMF tarkibiga kiradi.

Mikroorganizmlar logarifmik o'sish fazasida fosfor elementini juda ko'p miqdorda talab qiladi. chunki bu bosqich hujayra moddalarini va biokimyoviy jarayonlarning intensiv o'tishiga to'g'ri keladi. Odatda bu davrda 83-91% gacha bo'lgan fosfor oziqa muhitidan mikroorganizm biomassasiga o'tadi.

Fosfor proteaza, amilaza, pektolitik kabi biologik faol moddalarning biosintezini tezlashtiradi. Agar fosforni fosfor kislotalarining tuzi ko'rinishida tabiiy qaynatmalari bor muhit tarkibiga qo'shilsa eng yaxshi natijalarga erishish mumkin.

Vitaminlar va o'stirish moddalari. Mikroelementlarsiz, vitaminlarsiz va o'stirish moddalarisiz mikroorganizm hujayrasidagi moddalar almashinuvi jarayonini to'liq o'tishi ehtimoldan uzoqdir. Lekin hamma mikroorganizmlar ham o'sish va rivojlanishlari uchun bu birikmalarni qo'shilishini talab qilavermaydi. Shu nuqtai nazardan nazardan kelib chiqib mikroorganizmlar ikki turga bo'linadi:

					Bifidobakteriyalar ishlab chiqarish texnologiyasi	<i>varaq</i>
<i>O'zga</i>	<i>bet</i>	<i>xujjat №</i>	<i>imzo</i>	<i>sana</i>		

Agarda auksoavtotrof mikroorganizm o‘stiriluvchi muhitga vitaminlar va o‘stiruvchi birikmalar qo‘shilsa, ular bu produtsentning o‘shishi va rivojlanishiga hech qanday ta’sir ko‘rsatmaydi.

Agarda auksogeterotrof produtsent oziqasiga juda ham kam miqdorda yuqorida zikr etilgan moddalar qo‘shilsa, ularning o‘shish va rivojlanishi sezilarli darajada tezlashadi. Afsuski juda ko‘p produtsentlar auksogeterotrof organizmlar bo‘lib, ular biologik faol moddalar biosintezida qatnashuvchi V vitaminlar guruhi kompleksi (B₁, B₃, B₅, B₆, B₈) , ya’ni biotin, inozit, pantoten kislotasi, tiamin, piridoksin va boshqalarning oziqada bo‘lishiga muhtojdirlar.

Biotin aminokislotalarning hosil bo‘lish reaksiyalarida qatnashadi, bir necha biologik faol moddalarning faol markaziga kiradi va yot kislotalarining karboksillanish va dekarboksillanish jarayonlarini katalizlaydi. Inozit esa fosfor kislotasining olti molekulasi bilan birikib achitqi mikroblarni o‘shishini tezlashtiruvchi inozitfosfor kislotasini hosil qiladi. Pantoten kislotasi KoA tarkibiga kirib, hujayradagi eng muhim modda almashinuv jarayonlarida ishtirok etadi.

Bifidobakteriyalar tasnifi

Ular sog'lom insonlar va issiq qonli xayvonlar ichak mikroflorasining asosiy bakteriyalaridir. Bifidobakteriyalar ichak patogi,shartli potogen va boshqa organizm uchun zararli bo'lgan mikroorganizmlarga nisbatan antogonistik faollik namoyon qiladi.

Xozirgi kunda 24 turdagi bifidobakteriyalar aniqlangan.


Marfologik xususiyatlari (0,5 - 1,3)×(1,5 - 8)mkm o'lchamdagi tayoqchasimon shaklda,ozgina egilgan,to'nag'ichsimon va ko'pincha shoxlangan ko'rinishda bo'ladi.Xujayralari aloxida,juft - juft,V - ko'rinishda,ba'zida zanjirsimon bo'ladi.Grammusbat,xujayra to'liq bo'yalmaydi. Sporalar hosil qilmaydi.Xarakatsiz.

					Bifidobakteriyalar ishlab chiqarish texnologiyasi	<i>varaq</i>
<i>O'zga</i>	<i>bet</i>	<i>xujjat №</i>	<i>imzo</i>	<i>sana</i>		

Bifidobakteriyalar - qat'iy anaerob, kislorod ishtirokida yashay olmaydi. Ular glukozani fruktoza - 6 - fosfatli yo'l bilan bijg'itadi. Bifidobakteriyalar bilan glukozani fermentatsiyalash maxsulotlari sirka kislata va sut kislatalarning 3:2 nisbatidir.

Bifidobakteriyalarni optimal o'sish temperaturasi pH 6,0 - 7,0 da 35 - 40° c dir.

(rasm 1).



1-rasm - Bifidobacterium breve.

Bifidobakteriyalar insonlarning xayot faoliyatida uning salomatligini optimal darajada ushlab turish orqali muhim ro'l o'ynaydi. Ular ichak mikroflorasi bakteriyalarining ko'p qismini tashkil etadi. Insonning yo'g'on ichagining 1 grammida bir necha milliard bifidobakteriyalar aniqlangan.

					Bifidobakteriyalar ishlab chiqarish texnologiyasi	<i>varaq</i>
<i>O'zga</i>	<i>bet</i>	<i>xujjat №</i>	<i>imzo</i>	<i>sana</i>		

ASOSIY ISHLAB CHIQRISH TEXNOLOGIYASI VA UNING IZOXI

Bifidobakteriy ishlab chiqarish texnologiyasi

Bifidobakteriy ishlab chiqarish texnologik jarayoni quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

- sut zardobini qabul qilish va sifatini baholash
- pasterizatsiya;
- sovutish va rezervlash;
- elektroaktivatsiya i izomerizatsiya;
- neytralizatsiya;
- sterilizatsiya;
- inokulyasiya va kulturani fermentatsiyalash;
- biomassani ajratish;
- biomassani quritishga tayyorlash;
- quritish;
- flakonlarga qadoqlash.

Bifidobakteriy ishlab chiqarish texnologik sxemasi 1.1. rasmda berilgan.

Ishlab chiqarish bosqichlari tartibi:

Sut zardobini qabul qilish va sifatini baholash

Maxsulot ishlab chiqarishda texnologik jarayon xom ashyoni qabul qilish va sifatini baholashdan boshlanadi. Bifidobakteriy ishlab chiqarishda tvorog ishlab chiqarishda hosil bo'lgan sut zardobidan foydalaniladi. Ishlab chiqarish uchun sut zardobini saqlash muddati bir sutkadan oshmasligi kerak. Sut zardobi sifatini baholashda quyidagi ko'rsatkichlari: titrlanadigan kislotalailigi, kislotalik aktivligi, quruq moddalar miqdori, laktoza miqdori, oqsillar miqdori nazorat qilinadi. Sut zardobi tvorog vannasidan to'hridan to'g'ri sut solinadigan rezervuarga solinadi.

Sut zardobini tozalash

Sut zardobi o'zi brshqariladigan separatorlarda yog' va kazein changlaridan 35 – 40 °S xaroratda tozalanadi.

					Bifidobakteriyalar ishlab chiqarish texnologiyasi	<i>varaq</i>
<i>O'zga</i>	<i>bet</i>	<i>xujjat №</i>	<i>imzo</i>	<i>sana</i>		

Pasterizatsiyalash, sovutish va rezervuarlarga solish

Soʻngra tozalangan sut zardobi pasterizatsiyalovchi-sovituvchi qurilmaga tushadi (pasterizatsiyalash 15 minut davomida 70 – 75°S xaroratda amalga oshiriladi). Sovutish xarorati 6 – 10°S. Sovitilgan sut zardobi 24 soatdan ortiq saqlanmaydi.

Elektroaktivatsiya, izomerizatsiya va neytralizatsiya

Navbatdagi texnologik operatsiya bku elektroaktivatsion ishlov berishdir. Elektroaktivatsiyada xom ashyoni reagentsiz ishqorlash amalga oshiriladi. SHundan kelib chiqib, ishlov berilgan maxsulotning aktiv shordonligi uning asosiy xarakteristikasidir. Sut zardobiningelektroaktivatsion qurilma orqali tok oʻtishi rejimi va elektr toki koʻrsatkichlarini shunday tanlash kerakki, elektraktivlovchi xomashyo rNiizomerlash uchun optimal boʻlib, 11,7-12,2 atrofida bshlishi kerak. Berilgan kislotalik aktivligi oraligʻi kattaligini taʼminlash uchun jarayonni avtomatlashtirish lozim. Zarur nordonlikga ega boʻlgan elektroaktivirlangan sut zardobi 15 minut davomida 75°S xaroratda izomerizatsiyalanadi. Bunda laktozaning laktulozaga maksimal izomerlanishi amalga oshiriladi. Soʻngra sut zardobi 20 – 25°S xaroratgacha sovitiladi va kislotalari tvorog zardobi yoki organik kislotalar yordamida neytrallanadi. Sovitilgan va izomerlangan sut zardobi 12soat saqlanadi.

Sterilizatsiya

Izomerlangan sut zardobini sterillash sterilizatorida 130°S xaroratda 5 minut davomida amalga oshiriladi.

Bifidobakteriyalar bilan inokulyasiyalash va fermentatsiyalash

Sterillangan oziqa muxiti inokulyator va ish fermenteriga taqsimlanadi. Bu uskunalarda bifidobakteriyalar 37 – 38°S xaroratda 36 – 40 soat davomida oʻstiriladi. Oziqa muxitda 3 mlrd./sm³ mikrob hujayralari toʻplanadi. Bifidobakteriyalar statsionar fazada ajratiladi. Bu davrda mikrob xujayralari ancha aktiv va muzlatishga chidamli boʻladi.

					Bifidobakteriyalar ishlab chiqarish texnologiyasi	<i>varaq</i>
<i>Oʻzga</i>	<i>bet</i>	<i>xujjat №</i>	<i>imzo</i>	<i>sana</i>		

Biomassani ajratish

Bifidobakteriyalar o'stirilganidan so'ng 1g.da 300 mlrd. Hujayragacha konsentrlanadi. Konsentrlash separatorlar yordamida amalga oshiriladi. Tindirilgan suyuqlik idishga yig'ilib, chorva mollari uchun ozuqa sifatida foydalaniladi, biomassa esa aralashtiruvchi sig'imgayuboriladi. Sig'imda biomassa quritish muxiti bilan aralashtiriladi.

Biomassani quritishga tayyorlash

Quritish muxiti shunday tarzda tayyorlanadiki, oxirgi suspenziya (sut zardobi aralashmasi) tarkibida 5 – 8 % qandaroz, 1 – 1,5 % jelatina, 12 – 25 % sut zardobi aralashmasi va bifidogen konsentrat bo'lishi kerak. Sut zardobi aralashmasi va bifidogen konsentrat orasidagi nisbat (34 – 35):1ni tashkil etadi. Erigandan so'ng muxit 130°S xaroratda 15minut davomida sterillanadi va 40°S xaroratgacha sovitiladi. Bu jarayonlarning barchasi reaktrda amalga oshiriladi. Bifidobakteriyalarning aralash biomassasi va quritish muxiti sovuq suv bilan, so'ngra aralshtirish sig'imida namokob bilan sovitiladi. Sovitilgan suspenziya quyish avtomatida penitsillin flakonlariga quyiladi va quritishga yuboriladi.

Quritish

Quritish liofillash orqali amalga oshiriladi. Oldin flakonlar muzlatgich kameralarda – 50°S xaroratgacha muzlatiladi. So'ngra chuqur muzlatilgan flakonlar quritgichga jo'natiladi. U erda pasaytirilgan bosim (chuqur vakuum) 120 Pa yaratiladi. Quritgichda suspenziya 30°S xaroratgacha qizdiriladi.

Flakonlarni qopqoqlash

Bifidobakteriyalarning quritilgan biomassasi avtomat qopqoqlash uskunasi tushadi, u erda steril xavo atmosferasida rezina tiqinlar bilan yopilib, metall qopqoqlar bilan o'rat chiqiladi.

Bifidobakteriy ishlab chiqarishning apparatura jarayoni sxemasi quyida berilgan.

					Bifidobakteriyalar ishlab chiqarish texnologiyasi	<i>varaq</i>
<i>O'zga</i>	<i>bet</i>	<i>xujjat №</i>	<i>imzo</i>	<i>sana</i>		

ASOSIY USKUNANING ISHLASH PRINSIPI VA UNING TEXNIK

TAVSIFI

Asosiy uskuna mexanik aralashtirgichli barbatajli fermenter

Mexanik aralashtirgichli barbatajli fermentatorlar biologik aktiv moddalar sintez qiluvchi produtsent mikroorganizmlarni steril jarayonlarda o‘stirish uchun foydalaniladi. Bunday turdagi fermenterlar silindr shaklidagi vertikal apparatlar bo‘lib, X18N10T po‘lati va bimetallardan tayyorlangan ellips shaklidagi tubdan va qopqoqdali bo‘ladi. Balandligining diametriga nisbati 2,6:1 nisbatda bo‘ladi.

Apparatning qopqog‘ida 1-elektraxarakatlantirgich, 2-motor-reduktor, 3-mufflar, 4-podshipnik, 5-salnikdan iborat qurilmani aralashtirishini boshqaruvchi xarakatlantiruvchidan iborat bo‘ladi. O‘sha erning o‘zida oziqa muxiti va ekish materialini solish uchun shtutser 18, havoni berish va chiqarish uchun shtutserlari, kuzatish oynasi, yuvish uchun ishlatiladigan mexanik golovkalar, saqllovchi klapanlar o‘rnatilgan.

Mikrooragnizmlar suspenziyasini quyib olish uchun qurilmaning tagida chiqarish shtutseri 16 joylashgan. Korpus 7 ichida yopiq turbinlardan 8 iborat aralashtiruvchi qurilma o‘rnatilgan val 6 o‘tadi. Barbater 13 , havo beruvchi trubal11 bilan birikkan va perforatsiyalangan trubalardan iborat ajratiluvchi romb ko‘rinishida tayyorlangan.

Uning yuqori qismida shaxmat tartibida 2000 ...3000 tirqishlar joylashgan. Motor-reduktor2 tomonidan val 6 va aralshtiruvchi qurilmalar 8, 12, 14 muftalar 10 va 15 bilan aylantiriladi. Fermentator 6...8 pog‘onali seksiyalardan tashkil topgan rubashka 17 bilan ta‘minlangan. Har bir seksiya burchak profildan tashkil topgan 8ta nativ kanallardan tashkil topgan. Rubashkaning sovutiladigan maydoni yuzasi 60 m², zmeeviklardan 9 tashkil topgan ichki yuzasi diametri 600 mm va umumiy uzunligi 2,4 m.

Fermentator 0,25 MPa bosimda ishlshga, 130...140 °S xaroratda strerillashga, shuninbu erdak tokning kamayganida ham ishlashga mo‘ljallangan.

					Bifidobakteriyalar ishlab chiqarish texnologiyasi	<i>varaq</i>
<i>O‘zga</i>	<i>bet</i>	<i>xujjat №</i>	<i>imzo</i>	<i>sana</i>		

Mikroorganizmlarni o‘stirish jarayonlarida fermenter ichidagi havo bosimi 50 kPa atrofida bo‘ladi, steril havoning sarfi 1 m³/min gacha bo‘ladi. Apparatning balandiligi 8 m bo‘lganda, undagi suyuqlik ustuni balandligi 5...6 mni tashkil etadi. Jarayonning sterilligini ta‘minlash uchun aralashtiruvchi qurilmaning bug‘li ximoyasi uchun vallarning burchak zichligi ko‘zda tutilgan. Burchak zichlashtirgichlar 0,28 MPa bosimda va qoldiq bosim 2,7 kPa bo‘lmaganda, xarorat 30..250 °Sdan kam bo‘lmaganda va valning aylanish chatotasi 500 min/1 gacha bo‘lganda ishlashga mo‘ljallangan. Burchak zichliklar yordamida oziqa muxitning oqib ketishini va chiqib ketishi kerak bo‘lgan xavoning kirishini bartaraf qilish mumkin.

Oziqa muxitga tegib turuvchi burchak zichlashtiruvchilar X18N10T va X17N13M2T po‘latlar, shuninbu erdak VT-10Ttitandan tayyorlanadi. ISH resursi 8000 soat bo‘lganda burchak zichlashtiruvchilarining to‘xtovsiz ishi davomiyligi 2000 ch soatdan kam emas. Burchak zichlashtiruvchilari zonasida valning ruxsat etilgan radial urishi 0,25 mm, valning burchakli urishi 0,25° dan kam bo‘lmaydi.

					Bifidobakteriyalar ishlab chiqarish texnologiyasi	<i>varaq</i>
<i>O'zga</i>	<i>bet</i>	<i>xujjat №</i>	<i>imzo</i>	<i>sana</i>		

FOYDALANILGAN XOM ASHYOLAR TAVSIFI

Sut zardobining tarkibi va xususiyatlari uni olish texnologiyalariga bog'liq bo'ladi. Olinadigan asosiy maxsulotga bog'liq holda pishloq, tvorog va kazein ishlab chiqarishda xosil bo'lgan sut zardoblariga bo'linadi.

Sut zardobining fiz-kimyoviy xususiyatlari

Ko'rsatkichlar i	meyyor							
	Pishloq ishlab chiqarishda hosil bo'lgan		Pishloq zardobi filtrati	Tvorog zardob i	Tvorog zardobi filtrati Filtrat tvoroj- noy СЫВО-	Kazemn zardobi		Kazein zardobi filtrati
	sho'r	Sho'r emas				Sut kislotaldi	Xlorid kislotali	
Zichligi, kg/m ³ , dan kam emas	1023.0	1023	1019.0	1023.0	1019.0	1023.0	1023.0	1019.0
nordonligi, °T, dan ko'p	20.0	25	20.0	75.0	75.0	70.0	70.0	70.0
Quruq moddalrning yalpi ulushi %, dan kam emas, shuningdne laktozaning yalpi ulushi %,kam emas	5.0	4.5	5.0	5.0	4.5	5.0	5.0	4.5
	4,0	4,0	4.0	3.5	3.5	3.5	3.5	3.5

					Bifidobakteriyalar ishlab chiqarish texnologiyasi	<i>varaq</i>
<i>O'zga</i>	<i>bet</i>	<i>xujjat №</i>	<i>imzo</i>	<i>sana</i>		

Yogʻning yalpi ulushi, %, dan koʻp	0.1	0.1	—	0.1	—	0.1	0.1	—
Natriy xlorning yalpi ulushi, %, dan koʻp emas	—	2.0	—	—	—	—	—	—
Xlor ionlarining yalpi ulushi,	—	—	—	—	—	—	0.3	—

Oziqaviy va biologik qiymati

Sut zardobi tarkibidagi asosiy quruq moddalardan biri bu laktoza boʻlib, 70%ni tashkil etadi. 100ml sut zardobida oʻrtacha 0,135mg azot, kirib uning 65% oqsilli azotli birikmalar tarkibiga kiradi va 35% oqsil boʻlmagan qimi tarkibiga kiradi. Oqsilli azotli birikmalarsut zardobi tarkida 0,5 dan 0,8% gacha boʻladi. Sut zardobining oqsilli azotli birikmalari tarkibi quyidagi jadvalda berilgan

Jadval-4

Sut zardobining oqsil fraksiyalar boʻyicha tarkibi

Oqsillar fraksiyasi	Miqdori %	Izoelektrik nuqtasi, rN	Denaturatsiyalash xarorati, °S
Laktoalbuminli	0.4 – 0.5		
- laktoglobulin A		5.20	75-110
- laktoglobulin V		5.10	60-95
-laktoglobulin A V		5.30	60-95
- laktoglobulin S		5.33	60-90
- zardob albumini		4.70	60-95

					Bifidobakteriyalar ishlab chiqarish texnologiyasi	varaq
Oʻzga	bet	xujjat №	imzo	sana		

Laktoglobulinli	0.06-0.08		
- evoglobulin		6.00	75-90
- psevdoglobulin		5.60	75-90
Proteozopeptonli	0.06-0.18	5.30	70-110

Sut zardobi oqsillari arginina, gistidina, metionina, lizina, treonina, triptofana i leysinlarning qo‘shimcha manbai o‘lib xizmat qilishi mumkin. Bu ko‘satkich uni organizning xayot faoliyatida muxim rol o‘ynovchi to‘la qonli oqsil ekanligidan dalolat beradi.

Zardobda barcha o‘rni qoplanmaydigan mavjud. Sutga nisbatan erkin aminokislotalar miqdori 4-10 barobar ko‘p.

Sut zardobi tarkibidagi uglevodlar sutning uglevod tarkibiga xos bo‘lib-monoqandlar, oligoqandlar vai aminqandlardan iborat. Zardobning asosiy uglevodi disaxarid laktoza umumiy uglevodlar miqdorining 90%ni tashkil etadi. Monoqandlardan glyukoza va galaktoza mavjud.

Sut zardobi tarkibida 0,05 - 0,5% gacha yog‘ mavjud yu\bo‘lib, bu yog‘lar sut yog‘lariga nisbatan oson xazm bo‘ladi. Zardobga sutning barcha tuzlari va mikroelementlari o‘tadi.

Jadval-6

Sut zardobi tarkibidagi kul elementlar

Element	Miqdori , v %
Kaliy	0.09-0.19
Magniy	0.009-0.02

					Bifidobakteriyalar ishlab chiqarish texnologiyasi	varaq
O‘zga	bet	xujjat №	imzo	sana		

Kalsiy	0.04-0.11
Natriy	0.03-0.05
Fosfor	0.04-0.10
Xlor	0.08-0.11

Mineral birikmalardan tashqari zardobdan sutdagi suda va yog'da eruvchi vitaminlar o'tadi.

Jadval-7

Sut zardobi tarkibidagi vitaminlarning nisbiy miqdori

Vitaminlar	Sut zardobi tarkibidagi vitaminlarning sutga nisbatan miqdori (%)
Tiamin (V1)	88
Riboflavin (V2)	91
Piridoksin (V6)	136
Kobalamin (V12)	58
Askorbin kislota (S)	78
Nikotin kislota (RR)	54
Xolin	102
Retinol (A)	11
Biotin (N)	90
Tokoferol (E)	32

Organik kislotalardan sut zardobida sut, limon, nuklein, chumoli, sirka, propion, yog' kislotalar aniqlangan. Sut kislotasi bakteriyalarning hayot faoliyati natijasida hosil bo'ladi.

					Bifidobakteriyalar ishlab chiqarish texnologiyasi	varaq
O'zga	bet	xujjat №	imzo	sana		

Sut zardobi uglekislota, azot va kislorod gazlari tutadi.

Zardob oqsillari oltingugurt tutuvchi va boshqa hayot uchun zarar boʻlgan (sistin, lizin, metionin, gistidin, triptofan va boshq.) aminokislotalarga boy. Sut zardobi tarkibidagi yogʻlar mayda dispersiyalangan boʻlib, oshqozon devorlari tomonidan yaxshi oʻzlashtiriladi. SHuningdek uning tarkibidagi fermentlar, vitaminlar, fosfolipidlar va boshqa biologik faol moddalar ham inson organizmi uchun nihoyatda foydali hisoblanadi.

Sut zardobining energetik qiymati 1013 kj/kg (sutning 36%) tashkil etadi. SHunday qilib sut zardobi tarkibidagi quruq moddalarning yigʻindisi uning biologik toʻlaqonli ekanligidan dalolat beradi va keng assortimentdagi mahsulotlar, ayniqsa bolalar uchun parhez va davolovchi mahsulotlar ishlab chiqarish imkonini beradi.

					Bifidobakteriyalar ishlab chiqarish texnologiyasi	<i>varaq</i>
<i>Oʻzga</i>	<i>bet</i>	<i>xujjat №</i>	<i>imzo</i>	<i>sana</i>		

YORDAMCHI MATERIALLAR, CHIQINDILAR VA ULARDAN FOYDALANISH

Bifidumbakterin preparatini ishlab chiqarishda yordamchi materiallar sifatida quyidagi moddalardan foydalaniladi:

Ko'pik so'ndiruvchilar. Produtsentni o'stirish mobaynida hosil bo'lgan ko'pikni so'ndirish uchun quyidagi moddalarning biridan foydalaniladi: -Texnik olein kislota GOST 7580-55 asosida chiqariladi. Moysimon suyuqlik 10 °C dan past xarorat oq yoki sag'ish rangli pastasimon massaga aylanadi. Kislotaning zichligi 0,8320 g/dm³.

Kasholot yog'i GOST 8714-72 bo'yicha ishlab chiqariladi. Moysimon rangsiz suyuqlik. Kasholot yog'ining kislotalar soni 40. 0,5 % gacha bo'lgan qo'shimchalarga ega. Bundan tashqari kungaboqar, paxta, makkajo'xori yog'laridan ham ko'pik so'ndirishda foydalaniladi.

Natriy gidroksid (NaOH) sanoatda GOST 22637 bo'yicha kaliy gidroksidi (KOH) UJCN 9185-78 ishlab chiqariladi. Texnik soda GOST 5100-73 ishlab chiqariladi.

Texnologik uskunalarni yuvish uchun foydalaniladi. Bifidobakterin preparati chifindisix texnologiya hisoblanadi. Butun kultural suyuqlik va bakteriyalar massasi bilan birgalikda olinadi.

					Bifidobakteriyalar ishlab chiqarish texnologiyasi	<i>varaq</i>
<i>O'zga</i>	<i>bet</i>	<i>xujjat №</i>	<i>imzo</i>	<i>sana</i>		

USKUNANI TANLASH VA UNING HISOBI

Barbotajli fermenterning konstruktiv hisobi..

Bifidobakteriy ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan reaktorning asosiy konstruktiv hisobini amalga oshiramiz. Bu jarayon 38 °S xaroratda 36 – 40 soat doimiy aralashtirish orqali, eritma aeratsiyalanmasdan amalga oshiriladi.

Boshlang'ich ma'lumotlar

Apparatning ish xajmi, $V_{ish} = 7,9 \text{ m}^3$

Eritma xarorati, $t_e = 38 \text{ }^\circ\text{C}$

Eritma zichligi (38 °S), $\rho_e = 1023 \text{ kg / m}^3$

Eritmaning dinamik qovushqoqligi (38 °S), $\mu_e = 0,0018 \text{ Pa}\cdot\text{s}$

Eritmaning nisbiy issiqlik o'tkazuvchanligi (38 °S), $s_e = 4075 \text{ j / kg}\cdot\text{K}$

Apparatni to'ldirish koeffitsienti, $k_{to'l} = 0,8$

Reaktorning umumiy xajmini V_{um} quyidagi formula yordamida aniqlaymiz:

$$V_{um} = V_{ish} / k_{to'l}, \quad (1)$$

bu erda V_{rab} – rabochiy ob'em apparata, m^3 ;

$k_{to'l}$ – apparatni to'ldirish koeffitsienti.

$$V_{um} = 7,9 / 0,8 = 9,875 \text{ m}^3.$$

Reaktorning ichki kattaligini D_{ich} 2000 mm ga teng deb qabul qilamiz

					Bifidobakteriyalar ishlab chiqarish texnologiyasi	<i>varaq</i>
<i>O'zga</i>	<i>bet</i>	<i>xujjat №</i>	<i>imzo</i>	<i>sana</i>		

Apparatning ellipssimon qismining balandligini h_{el} quyidagi formula bilan aniqlaymiz:

$$h_{el} = 0,25 \cdot D_{ich}, \quad (2)$$

$$h_{el} = 0,25 \cdot 2000 = 500 \text{ mm} = 0,5 \text{ m}.$$

apparatning umumiy ellipssimon qismini V_{tub} quyidagi formula bilan aniqlaymiz:

$$V_{tub} = 4/3 \cdot \pi \cdot h_{el} \cdot D_{ich} / 2, \quad (.3)$$

$$V_{tub} = 4/3 \cdot 3,14 \cdot 0,5 \cdot 2 / 2 = 2,09 \text{ m}^3.$$

Reaktorning to'liq xajmi $V_{to'1}$ quyidagicha bo'ladi:

$$V_{to'1} = V_{um} + 2 \cdot V_{tub}, \quad (4)$$

$$V_{to'1} = 9,875 + 2 \cdot 2,09 = 14,055 \text{ m}^3.$$

Reaktorning kesishish maydonni ichki diametri bo'yicha F quyidagi formula bilan aniqlaymiz:

$$F = 0,785 \cdot D_{ich}^2, \quad (5)$$

$$F = 0,785 \cdot 2^2 = 3,14 \text{ m}^2.$$

Apparatning silindrsimon qismi balandligini topamiz H_s :

$$N_s = (V_{to'1} - 2 \cdot V_{tub}) / F, \quad (6)$$

$$N_s = (14,055 - 2 \cdot 2,09) / 3,14 = 3,15 \text{ m}.$$

Apparatning umumiy balandligini N_{um} quyidagi formula bilan aniqlaymiz:

$$N_{um} = N_s + 2 \cdot (h_{el} + h), \quad (7)$$

					Bifidobakteriyalar ishlab chiqarish texnologiyasi	<i>varaq</i>
<i>O'zga</i>	<i>bet</i>	<i>xujjat №</i>	<i>imzo</i>	<i>sana</i>		

bu erda h – otborovka balandligi, $h = 0,025$ m.

$$N_{um} = 3,15 + 2 \cdot (0,5 + 0,025) = 4,2 \text{ m.}$$

					Bifidobakteriyalar ishlab chiqarish texnologiyasi	<i>varaq</i>
<i>O'zga</i>	<i>bet</i>	<i>xujjat №</i>	<i>imzo</i>	<i>sana</i>		

MAHSULOTLAR HISOBI

1. Bifidobakteriyalar olish uchun qayta ishlanayotgan sut zardobi massasi:

$$M_{\text{sut zar..norm.}} = 16000 \text{ kg.} \quad (2.1)$$

2. Separatsiyadagi yo‘qotish hisobga olgan holda sut zardobi massasi:

$$M_{\text{sut zar..teor.}} = M_{\text{chiv.norm.}} \cdot (100 - Y_{\text{sep.}}) / 100, \quad (2.2)$$

Bunda $Y_{\text{sep.}} = 0,454 \%$ - separatsiya vaqtidagi normativ yo‘qotishlar.

$$M_{\text{sut zar..teor.}} = 16000 \cdot (100 - 0,454) / 100 = 15927,36 \text{ kg.}$$

3. separtordagi yo‘qotish:

$$M_{\text{sep.}} = M_{\text{sut zar..norm.}} - M_{\text{sut zar..teor.}} \quad (2.3)$$

$$M_{\text{sep.}} = 16000 - 15927,36 = 72,64 \text{ kg.}$$

4. yog‘sizlangan sut zardobi:

$$M_{\text{yog‘siz..sut zar..}} = M_{\text{sut zar..teor.}} \cdot (J_{\text{qay.}} - J_{\text{sut zar..}}) / (J_{\text{qay.}} - J_{\text{yog‘sihim.s.ut zar..}}), \quad (2.4)$$

bu erda $J_{\text{qay.}} = 30 \%$ - pishloq ishlab chiqarishdagi qaymoqdagi yog‘ miqdori;

$J_{\text{sut zar..}} = 0,5 \%$ - sut zardobidagi yog‘ miqdori;

$J_{\text{yog‘sihim.s.ut zar..}} = 0,1 \%$ - yog‘sizlangan sut zardobidagi yog‘ miqdori.

$$M_{\text{yog‘sihim.s.ut zar..}} = 15927,36 \cdot (30 - 0,5) / (30 - 0,1) = 15688,05 \text{ kg.}$$

5. Qamoq massasi:

$$M_{\text{qay.}} = M_{\text{sut zar..teor.}} \cdot (J_{\text{sut zar..}} - J_{\text{yog‘sihim.s.ut zar..}}) / (J_{\text{qay.}} - J_{\text{yog‘sihim.s.ut zar..}}), \quad (2.5)$$

$$M_{\text{qay.}} = 15927,36 \cdot (0,5 - 0,1) / (30 - 0,1) = 239,3 \text{ kg.}$$

					Bifidobakteriyalar ishlab chiqarish texnologiyasi	varaq
O‘zga	bet	xujjat №	imzo	sana		

6. Neytrallash uchun ketgan kislota massasi:

$$M_{\text{org.k.}} = 0,01 \cdot K_{\text{org.k.}} \cdot M_{\text{yog'sihim.s.ut zar.}}, \quad (2.6)$$

Bunda $K_{\text{org.k.}}$ – solingan organik kislota dozasi (0,5 – 0,7%).

$$M_{\text{org.k.}} = 0,01 \cdot 0,7 \cdot 15688,05 = 109,81 \text{ kg.}$$

7. neytrallangan sut zardobining kislota qo‘shilganini hisobga

olgandagi massasi:

$$M_{\text{n.sut zar.}} = M_{\text{yog'sihim.s.ut zar.}} + M_{\text{org.k.}}, \quad (2.7)$$

$$M_{\text{n.sut zar.}} = 15688,05 + 109,81 = 15797,86 \text{ kg.}$$

8. Ishlab chiqarish oziqa muxiti massasi:

$$M_{\text{oz.m.}} = M_{\text{n.sut zar.}}, \quad (2.8)$$

$$M_{\text{oz.m.}} = 15797,86 \text{ kg.}$$

9. Ekish materiali massasi:

$$M_{\text{ek.mat.}} = 0,01 \cdot K_{\text{ek.matp.k.}} \cdot M_{\text{ek.d.}}, \quad (2.9)$$

Bu erda $M_{\text{ek.d.}}$ – ekish dozasi (ishlab chiqarish oziqa muxitidan 3 – 5%).

$$M_{\text{ek.d.}} = 0,01 \cdot 5 \cdot 15797,86 = 789,9 \text{ kg.}$$

10. Biomassa ortishining massasi:

$$M_{\text{b.o.}} = 0,001 \cdot K_{\text{k.d.}} \cdot M_{\text{oz.m.}}, \quad (2.10)$$

bu erda $K_{\text{b.o.}}$ –biomassa ortishi (ishlab chiqarish oziqa muxitining 2 – 3 g/l);

$$M_{\text{b.o.}} = 0,001 \cdot 0,003 \cdot 15797,86 = 0,047 \text{ kg.}$$

11. oldindan fermentatsiyalash uchun oziqa muxit va ekish materiali massasi, shuninbu erdak oldindan fermentatsiyalash davrida biomassaning o‘shishi.:

					Bifidobakteriyalar ishlab chiqarish texnologiyasi	<i>varaq</i>
<i>O'zga</i>	<i>bet</i>	<i>xujjat №</i>	<i>imzo</i>	<i>sana</i>		

$$M_{oz.m.2} = M_{p.k.}/1,050003 , \quad (2.11)$$

$$M_{oz.m.2} = 789,9/1,050003 = 752,28 \text{ kg.}$$

$$M_{p.k.2} = 0,01 \cdot K_{ek.d.} \cdot M_{oz.m.2} \quad (2.12)$$

